

FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH BO‘YICHA XALQARO YONDASHUVLAR: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA INSTITUTSIONAL XULOSALAR

Omonov Alim Tolibovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18359956>

Annotatsiya. Maqolada fuqarolikni rasmiylashtirish amaliyotining xalqaro modellari qiyosiy-huquqiy metod asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot fuqarolikni olish (naturalizatsiya), fuqarolikni tiklash, fuqarolikdan chiqish hamda (ayrim yurisdiksiyalarda) ko‘p fuqarolikni tan olish masalalarining normativ konstruksiyalari va ma‘muriy tartib-taomillarini tizimlashtiradi.

Xalqaro amaliyotda uchraydigan asosiy protsedural elementlar — rezidentlik va integratsiya talablari, til/konstitutsiyaviy bilim imtihonlari, hujjatlarni verifikatsiya qilish, xavfsizlik tekshiruvlari, qarorlarni asoslash majburiyati va apellyatsiya mexanizmlari — huquqiy mezonlar asosida solishtiriladi. Shuningdek, “service-oriented administration” tamoyili doirasida raqamlashtirish, idoralararo interoperabilitet, shaxsga doir ma‘lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik standartlarining ta’siri baholanadi. Yakunda milliy tizimni takomillashtirish uchun huquqiy aniqlik, protsessual adolat (due process), nondiskriminatsiya va shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan institutsional tavsiyalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolikni rasmiylashtirish; xalqaro modellar; qiyosiy-huquqiy tahlil; naturalizatsiya; rezidentlik talabi; xavfsizlik tekshiruvi; due process; apellyatsiya; raqamlashtirish; ma‘lumotlar himoyasi.

Аннотация. В статье представлен сравнительно-правовой анализ международных моделей оформления гражданства. Исследование систематизирует нормативные конструкции и административные процедуры приобретения гражданства (натурализации), восстановления, выхода из гражданства, а также регулирования множественного гражданства в отдельных юрисдикциях. Сопоставляются ключевые процедурные элементы: требования к сроку проживания и интеграции, языковые/конституционные тесты, верификация документов, проверки безопасности, обязанность мотивировать решения и эффективность механизмов обжалования.

Отдельное внимание уделяется развитию “service-oriented administration”, цифровизации и межведомственной interoperабельности, а также вопросам защиты персональных данных и кибербезопасности. В заключении формулируются институциональные выводы и рекомендации, ориентированные на повышение правовой определённости, процедурной справедливости (due process), недискриминации и прозрачности в национальной системе оформления гражданства.

Ключевые слова: оформление гражданства; международные модели; сравнительно-правовой анализ; натурализация; требование резидентства; проверки безопасности; due process; обжалование; цифровизация; защита данных.

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of international models of citizenship formalization. It systematizes regulatory designs and administrative procedures for acquiring citizenship (naturalization), restoring citizenship, renunciation, and—where applicable—multiple citizenship regimes. The paper compares key procedural components, including residence and integration requirements, language/civics testing, document

verification, security screening, the duty to provide reasoned decisions, and the effectiveness of appeal mechanisms. It further assesses the impact of service-oriented administration, digitalization and inter-agency interoperability, as well as personal data protection and cybersecurity standards. The article concludes with institutional lessons and recommendations aimed at strengthening legal certainty, due-process guarantees, non-discrimination, and transparency in national citizenship formalization systems.

Keywords: citizenship formalization; international models; comparative legal analysis; naturalization; residence requirement; security screening; due process; appeals; digitalization; data protection.

Fuqarolikni rasmiylashtirish instituti davlat suvereniteti va migratsiya boshqaruvi manfaatlarini bilan inson huquqlari kafolatlari tutashadigan sohalaridan biridir. Global migratsiya oqimlari, mehnat mobilligi va transmilliy oilaviy aloqalar kuchayayotgan sharoitda fuqarolikni rasmiylashtirish tartib-taomillarining huquqiy aniqligi hamda protsessual adolatliligi davlat boshqaruvi samaradorligining muhim indikatoriga aylanmoqda. Shu bois turli davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha talablarda mutanosiblikni topish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish, shaffoflik va apellyatsiya mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek raqamli boshqaruv yechimlarini huquqiy xavfsiz integratsiya qilish uchun metodologik asos yaratadi.

Fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribasini ilmiy tahlil qilish orqali fuqarolikni berish va yo'qotish jarayonlarini yaxshilash, huquqiy standartlarni takomillashtirish va migratsiya oqimlarini nazorat qilishning ilg'or usullarini o'rganish mumkin.

Bunday tahlil nafaqat milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga, balki fuqarolarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Har bir davlatda fuqarolik masalalarini hal qilish turli tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, turli qonunchilik normalari bilan tartibga solinmoqda. Xususan, bugungi kunda rivojlangan davlatlarning qonunchilik sohasidagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni¹ning 116-bandida "ilg'or xorijiy tajriba asosida amaldagi qonunchilikni takomillashtirish" ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangani fikrimiz tasdig'idir.

Shu o'rinda, bugungi kunda rivojlangan davlatlarning fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq qonunchilik mexanizmi qanday?, rivojlangan davlatlar va Yangi O'zbekistonning fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi qonunchiligini o'zaro uyg'unligi hamda farqli jihatlari nimalardan iborat? degan savollar yuzaga keladi.

Mazkur masala yuzasidan fransuz olimi M.Ansel, "xorijiy tajriba yuristlariga yangi g'oyalarni ochishga, o'z davlatining huquq tizimini yaxshiroq bilishga, boshqa tizimlar bilan qiyoslash orqali uning o'ziga xos jihatlari aniqlashga imkon beradi"² degan g'oyani ilgari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.

² Ansel M. Metodologicheskiye problemy sravnitel'nogo prava // Ocherki sravnitel'nogo prava. — M., 1981. - S. 38.

surgan bo'lsa, mahalliy huquqshunos olimlardan Dj.X.Yuldashev ta'biricha esa, hozirda fuqarolik munosabatlarini tartibga solish har bir davlatning tarixiy, madaniy va lingvistik an'analari, shuningdek o'ziga xos huquqiy siyosati va xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Biroq shu bilan birga, shaxs huquqiy maqomini belgilash amaliyotida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi³.

Darhaqiqat, bugungi kunda rivojlangan davlatlar fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish orqali inson huquqlarini himoya qilish va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan samarali tizimlar yaratishga urinmoqda. Har bir mamlakat o'zining huquqiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyatlariga asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqqan.

Quyida bu davlatlarning ilmiy jihatdan kengroq yoritilgan fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmlari keltiriladi.

❖ **Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH)ning** fuqarolikni rasmiylashtirish tizimi murakkab va turli yo'llar orqali amalga oshiriladi. Asosiy fuqarolikka qabul qilish jarayoni quyidagi qonunchilik normalari va prinsiplarga tayangan holda tartibga solinadi:

1. Jus Soli (*tug'ilish joyiga ko'ra fuqarolik*). AQSH Konstitutsiyasining 14-to'g'riq qismida belgilangan tartibga ko'ra, mamlakat hududida tug'ilgan har qanday shaxs avtomatik ravishda fuqarolikka ega bo'ladi. Bu jus soli deb nomlanadi va AQSHda tug'ilgan barcha shaxslarga, ota-onasining huquqiy maqomiga qaramasdan, fuqarolik huquqini beradi. Bu norma asosan

1868-yilda qabul qilingan 14-tuzatishga tayanadi⁴.

2. Jus Sanguinis (*qonga ko'ra fuqarolik*). AQSH fuqarosi bo'lgan ota-onalarning chet elda tug'ilgan farzandlari avtomatik ravishda fuqarolikka da'vogarlik qilishlari mumkin. Bu prinsip jus sanguinis deb ataladi. Fuqarolikni rasmiylashtirishda bolaning ota-onasi AQSH fuqarosi ekanligini isbotlash va oralarida qonuniy munosabatlar mavjudligini ko'rsatish talab etiladi⁵.

3. Naturalization (*fuqarolikka qabul qilish*). Fuqarolikni olishning yana bir asosiy usuli – fuqarolikka qabul qilish (naturalization) jarayonidir. Bu jarayon AQSHda uzoq muddatli qonuniy yashagan shaxslar uchun amalga oshiriladi. Arizachilarning fuqarolikka qabul qilinishini tartibga soluvchi asosiy qonunlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: AQSHda Immigratsiya va fuqarolik to'g'risidagi qonun (*Immigration and Nationality Act – INA*)⁶ fuqarolikka qabul qilishning umumiy qoidalarini belgilaydi. Bu jarayonda arizachi AQSHda kamida 5 yil qonuniy doimiy yashagan bo'lishi, ingliz tilida muloqot qilishni bilishi, AQSHning asosiy qonunlarini va hukumat tizimini tushunishi lozim.

³ Yuldashev Djaxongir Xayitovich, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini huquqiy tartibga solish muammolari: Monografiya. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. — 96 b

⁴ Citizenship and Naturalization // <https://www.uscis.gov/citizenship/learn-about-citizenship/citizen-ship-and-naturalization> (murojaat sanasi: 23.10.2024).

⁵ United States Citizenship Laws Explained // <https://www.brudnerlaw.com/resources/united-states-citizenship-laws-explained> (murojaat sanasi: 23.10.2024).

⁶ The Immigration and Nationality Act (INA) was enacted in 1952. // <https://www.uscis.gov/laws-and-policy/legislation/immigration-and-nationality-act> (murojaat sanasi: 23.10.2024).

Fuqarolikka qabul qilinishi uchun arizachi maxsus sinovdan o'tadi, bu sinov AQSHning tarixi va siyosiy tizimi bo'yicha bilimlarni baholaydi. Shuningdek, fuqarolikka qabul qilish jarayonida shaxsiy intervyu ham o'tkaziladi.

4. Child Citizenship Act of USA (bolalar uchun maxsus qonunlar). Bolalar va adotsiya qilingan shaxslar uchun ham maxsus fuqarolik qonunlari mavjud. Misol uchun, Child Citizenship Act (2000) qonuniga ko'ra, agar AQSH fuqarosi bolani adotsiya qilsa⁷ yoki u qonuniy farzandi bo'lsa, bolaga avtomatik ravishda fuqarolik beriladi. Bu jarayon avtomatik bo'lib, qonuniy rezident maqomga ega bo'lgan bolalar uchun amal qiladi.

5. Dual Citizenship (ikkita fuqarolik). AQSH qonunchiligi ikkita fuqarolikka ruxsat beradi⁸, ya'ni shaxs boshqa bir davlatning fuqarosi bo'lgan holda ham AQSH fuqaroligini saqlab qolishi mumkin. Ammo bu jarayonda har ikki davlatning huquqiy talablari bajarilishi shart bo'ladi, shu jumladan soliq to'lash va harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish lozim hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, AQSHda fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni bir qator huquqiy asoslarga tayanadi, ular yuzasidan har bir shaxs fuqarolikka da'vogarlik qilishi mumkin. Bu jarayonlar, jumladan, *jus soli* va *jus sanguinis* kabi tamoyillar orqali yoki *fuqarolikka qabul qilish (naturalization)* jarayoni orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bolalar va adotsiya qilingan shaxslar uchun maxsus qonunlar ham mavjud bo'lib, ularning fuqarolik olishini yengillashtiradi. Shu o'rinda, bugungi kunda mazkur tajribani rivojlangan Yevropa davlatlardan biri bo'lgan Germaniya tajribasida ham kuzatish mumkin.

Ma'lumot uchun: statistik ma'lumotlarga ko'ra⁹, 2023-yilda AQSHda yangi fuqarolikni olgan shaxslar soni 877 770 kishini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 10% kamdir.

Mazkur ko'rsatkichni davlatlar kesimida tahlil qilsak, Amerika pasportini olgan eng ko'p fuqarolar Meksika, Indiya va Filippin davlatlariga to'g'ri keladi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, 2023-yilda 1,173 milliondan ortiq chet el fuqarolari AQSHda yashashga ruxsat (grin-karta) olishgan. Shu bilan birga, berilgan grin-kartalar soni oxirgi 7 yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Grin-kartalarni eng ko'p oladigan beshta davlatlarga: Meksika, Indiya, Kuba, Dominikan Respublikasi va Xitoy kabi davlatlar to'g'ri kelmoqda.

❖ **Germaniya Federativ Respublikasida**¹⁰ 2000-yildan boshlab, mamlakat hududida tug'ilgan bolalar, agar ularning ota-onalari Germaniyada doimiy yashovchi shaxslar bo'lsa, avtomatik ravishda fuqarolikni olishlari mumkin. Bu qoida bolaning ota-onasi xorijiy fuqaro bo'lgan holda ham amal qiladi, agar ular Germaniyada kamida 8 yil qonuniy yashagan bo'lsalar, fuqarolik (*jus Sanguinis*) Germaniyada asosiy prinsiplardan biri – *jus sanguinis*, ya'ni bola Germaniya fuqarosi bo'lgan ota-onaning farzandi bo'lsa, avtomatik ravishda fuqarolikka ega

⁷ **Izoh:** Bolani adotsiya qilish – bu bolaning biologik ota-onasidan hukuqiy yo'l bilan ajralib, uning qonuniy vasiylikka qabul qilinishi jarayonidir. Adotsiya qilingan bola yangi ota-onasiga biologik farzandi sifatida hukuqiy maqom oladi, ya'ni oilaviy munosabatlar to'liq shaklda o'zgarib, yangi oila a'zosi deb hisoblanadi. Shuningdek, adotsiya qilingan bola yangi ota-onasining merosxo'ri bo'lib, uning huquq va majburiyatlari to'liq kafolatlanadi. Adotsiya jarayoni turli davlatlarda turlicha qonunchilik bilan tartibga solinadi, ammo umumiy maqsad – bolani barqaror oila muhitida voyaga yetkazish va uning manfaatlarini himoya qilishdir.

⁸ United States Citizenship Laws Explained // <https://www.brudnerlaw.com/resources/united-states-citizenship-laws-explained> (murojaat sanasi: 23.10.2024).

⁹ <https://secondwindeb5.com/articles/annual-review-of-investment-immigration-to-the-us-2023/>

¹⁰ Federal Government of Germany // <https://www.bundesregierung.de/breg-en>

bo'ladi. Bu ota-onasining fuqaroligiga bog'liq bo'lgan tamoyildir. Masalan, agar bola chet elda tug'lsa, u Germaniya fuqarosi bo'lgan ota-onasi orqali fuqarolik olish huquqiga ega. Bunga ko'ra:

1. Abstammungsprinzip (qonga ko'ra fuqarolik) – Germaniyada fuqarolik olishning asosiy prinsipi *jus sanguinis* (qon qoidasi) hisoblanadi. Bu tamoyilga ko'ra, agar bola Germaniya fuqarolarining farzandi sifatida tug'ilgan bo'lsa, u avtomatik ravishda Germaniya fuqaroligiga ega bo'ladi, hatto bola Germaniyadan tashqarida tug'ilgan bo'lsa ham. Bolaning biologik ota-onasining Germaniya fuqarosi bo'lishi yetarli hisoblanadi.

2. Einbürgerung (fuqarolikka qabul qilish) – Germaniyada fuqarolikka qabul qilish, ya'ni naturalization orqali fuqarolikka ega bo'lish uchun, fuqarolikka da'vogarlik qilayotgan shaxslar muayyan shartlarga javob berishi kerak. Bu jarayonga quyidagi talablar kiradi:

- Germaniyada qonuniy ravishda kamida 8 yil yashagan bo'lishi;
- Germaniya qonunlari va konstitutsiyasini hurmat qilishi;
- moliyaviy mustaqil (ya'ni, davlat yordamiga muhtoj bo'lmaslik) bo'lishi;
- ingliz yoki nemis tilini o'rtacha darajada bilishi (odatda B1 daraja talab qilinadi);
- qonunlar va ijtimoiy tizim haqidagi bilimlarni baholash uchun sinovdan o'tish.

3. Recht des Bodens (tug'ilish joyiga ko'ra fuqarolik) – 1999-yildan boshlab Germaniyada *jus soli* (tug'ilish joyiga ko'ra fuqarolik) prinsipi ham joriy etilgan. Unga ko'ra, agar bola Germaniyada tug'ilgan va uning ota-onasi kamida 8 yil davomida qonuniy ravishda Germaniyada yashagan bo'lsa, bola avtomatik tarzda fuqarolikka ega bo'ladi. Bu prinsip Germaniyada uzoq muddat yashagan muhojirlar farzandlari uchun muhimdir.

4. Doppelte Staatsbürgerschaft (ikki fuqarolik) – Germaniya qonunchiligi bir paytning o'zida ikki fuqarolikka ega bo'lishni cheklaydi. Ammo ba'zi istisno holatlar mavjud. Jumladan, Yevropaning ba'zi mamlakatlari yoki Germaniya bilan maxsus kelishuvlar tuzilgan davlatlar fuqarolari uchun bu mumkin bo'lishi mumkin. Agar shaxsning ikki fuqarolik olish zarurati paydo bo'lsa, davlat maxsus ruxsat berish masalasini ko'rib chiqishi mumkin.

5. Bürgerschaft für adoptierte kinder (adotsiya qilingan bolalar uchun fuqarolik) - Adotsiya qilingan bolalar uchun fuqarolik olish Germaniyada va boshqa rivojlangan davlatlarda qonuniy mexanizmlar orqali soddalashtirilgan. Bu jarayon bolaning huquqiy maqomini qonuniy ota-onasining maqomiga moslashtirish va uning manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Germaniya qonunchiligida, agar bola Germaniya fuqarosi tomonidan adotsiya qilinsa, u avtomatik ravishda Germaniya fuqaroligini olish huquqiga ega bo'ladi. Qonunlarga ko'ra, bolaning fuqaroligi ota-onaning fuqaroligi bilan bog'liq bo'lib, ota-ona tomonidan rasmiy ravishda qabul qilinganidan so'ng, bola shu davlat fuqaroligiga ega bo'ladi.

Adotsiya jarayoni quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- avtomatik fuqarolik: Bolani Germaniya fuqarosi qabul qilgan taqdirda, u avtomatik ravishda fuqarolikni oladi;
- moliyaviy barqarorlik: Adotsiya qiluvchi oila bolaning barcha ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;
- jinoiy tekshiruv: Adotsiya qiluvchi ota-ona qonunbuzarliklardan holi bo'lishi talab qilinadi.

Shuni alohida taakidlash joizki, Germaniyadagi fuqarolik qonunlari mamlakatning muhojirlik siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu siyosat muhojirlarning Germaniya jamiyatiga moslashishini va integratsiyasini ta‘minlash maqsadida qayta-qayta isloh qilinadi.

Ma‘lumot o‘rnida, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra¹¹, 2022-yilda 200 mingdan ortiq chet el fuqarolari Germaniya fuqaroligini oldilar — ularning soni 200 095 kishi bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan taxminan 19% ko‘proq. Bu 2000-yildan beri eng yuqori ko‘rsatkich, deb xabar qildi Germaniya Federal statistika boshqarmasi. Shuningdek, 2023-yilda Germaniya fuqaroligini 157 turli millatdan bo‘lgan odamlar oldilar. Yangidan fuqarolikka ega bo‘lganlarning o‘rtacha yoshi 29,3 yosh, Germaniya aholisi orasida esa — 44,6 yosh. Ularning asosiy qismi erkaklar. Naturalizatsiya qilingan fuqarolarning eng ko‘p tarqalgan beshta yurtlari Suriya, Turkiya, Iroq, Ruminya va Afg‘oniston bo‘ldi. Ushbu davlatlarga barcha naturalizatsiyalarning 56% dan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

Naturalizatsiya qilinganlarning eng katta guruhi suriyaliklar (38%) bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 27 100 kishiga oshdi — bir yil ichida ikki barobardan ko‘proq. Turkiya va Iroqdan chiqib kelganlarga tegishli naturalizatsiyalar soni esa har biri uchun 10 700 to‘g‘ri keldi.

2023-yilda nemis fuqaroligini olgan ukrainaliklar soni faqat 300 kishiga oshdi va 5 900 kishini tashkil etdi. 2021-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda bu ko‘rsatkich uch barobarga yaqin oshdi — 1 900 dan 5 600 ga. Ukraina fuqarolarining naturalizatsiyasi 2023-yilda umumiy naturalizatsiyalarning faqat 3%ini tashkil etdi.

Germaniya parlamenti nemis fuqaroligini olish tartibini soddalashtirishga oid loyihani ma‘qulladi. Mazkur loyihaga ko‘ra mamlakatda bir necha yil yashagan, ishlagan va soliq to‘lagan har bir kishi Germaniya fuqarosi bo‘lish uchun soddalashtirilgan tartibda murojaat qilishlari mumkin. Endilikda fuqarolikni olish uchun 8 yil o‘tkazish shart emas, balki Germaniyada 5 yil yashaganidan keyin fuqarolikka ega bo‘lishi mumkin. Agar “maxsus integratsiya natijalari” bo‘lsa, bu 3 yilda ham mumkin bo‘ladi. Shuningdek, fuqarolik uchun murojaat qiluvchilar o‘z yurtlaridan kelgan pasportdan bosh tortishi shart emas.

Yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlar bilan bir qatorda Fransiyada ham fuqarolikni rasmiylashtirish tartibi xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan.

❖ **Fransiya Respublikasida** fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmi asosan *Fuqarolik kodeksi (Code Civil)*¹² va maxsus qonunlar orqali tartibga solinadi. Ushbu qonunchilik Fransiya fuqaroligini olish, tug‘ilish joyi va qon qoidalariga ko‘ra fuqarolik berish, shuningdek, naturalizatsiya qilish jarayonlarini qamrab oladi. Fuqarolik kodeksi Fransiyadagi asosiy qonunlardan biri bo‘lib, unda fuqarolik bilan bog‘liq qoidalar jumladan, fuqarolikni tug‘ilish joyiga yoki ota-onasining fuqaroligiga ko‘ra berish qoidalari belgilangan. Bu qonun Fransiya fuqarosi bo‘lgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi. Mazkur kodeksga ko‘ra:

1. Droit du sol (tug‘ilish joyi prinsipi)¹³ga ko‘ra – Fransiyada tug‘ilgan shaxslar agar ularning ota-onasi Fransiyada qonuniy yashash maqomiga ega bo‘lsa Fransiya fuqaroligini olishlari mumkin;

¹¹ <https://tass.ru/obschestvo/20924145>

¹² Code Civil // https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070721/

¹³ Jus soli // https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070721/

2. **Droit du sang** (qon qoidasi)¹⁴ga ko'ra – Fransiya fuqarosi ota-onasiga ega bo'lgan shaxslar avtomatik tarzda fuqarolikka ega bo'lishadi, hatto agar ular Fransiya hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsalar ham;

3. **Naturlisation** (naturalizatsiya)¹⁵ ga ko'ra – Fuqarolikni qabul qilish jarayoni Fransiya'dagi naturalizatsiya jarayoni orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon bir qator shartlarni talab qiladi:

- shaxs Fransiya'da 5 yil qonuniy yashagan bo'lishi kerak. Ayrim holatlarda (masalan, Fransiya'da ta'lim olgan yoki Fransiya fuqarosi bilan turmush qurgan shaxslar) bu muddat qisqartirilishi mumkin;

- shaxs fransuz tilini yaxshi bilishi va Fransiya jamiyatiga integratsiya qilgan bo'lishi kerak;

- Fransiya qonunlariga rioya qilish va moliyaviy mustaqillik talab qilinadi.

4. **La double nationalité** (ikkita fuqarolik)¹⁶ga ko'ra – Fransiya'da ikkita fuqarolikka ruxsat berilgan. Shaxs o'zining avvalgi fuqaroligini saqlab qolish bilan birgalikda Fransiya fuqaroligini ham olishi mumkin. Fransiya hech qanday holatda fuqarolarini ikkinchi fuqarolikdan voz kechishga majbur qilmaydi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Fransiyaning fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari, avvalambor, uning ochiq va inklyuziv yondashuvida aks etadi. **Droit du sol** va **Droit du sang** qoidalarini Fransiya'da tug'ilgan shaxslar va Fransiya fuqarolarining bolalari uchun fuqarolikni osonlashtiradi. Naturalizatsiya jarayoni orqali Fransiya o'z jamiyatiga moslashgan muhojirlar uchun fuqarolikka kirishni soddalashtiradi. Ikkita fuqarolikni qo'llab-quvvatlash esa global jamiyatdagi shaxslar uchun muhim o'rin tutadi.

Ma'lumot o'rnida, Fransiya davlati IIV ma'lumotiga ko'ra¹⁷, 2023-yilda naturalizatsiya asosida jami 61.640 ta shaxs Fransiya fuqaroligini qabul qilgan. Shuningdek, 2023-yilda 19.500 ta shaxs nikoh shartnomasini tuzish orqali Fransiya fuqaroligini qabul qilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 18%ga ortgan.

Bundan tashqari, iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan katta 20 talik mamlakatlaridan biri Rossiya Federatsiyasida fuqarolik rasmiylashtirish bilan bog'liq amaliyot ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

❖ **Rossiya Federatsiyasida** fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmi asosan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi¹⁸, Fuqarolik to'g'risidagi qonun¹⁹ va bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar fuqarolikka ega bo'lish va uning bekor qilinishi kabi jarayonlarni belgilaydi. Rossiya Konstitutsiyasida har bir shaxs fuqarolikka ega bo'lish huquqiga ega ekanligi va fuqarolikdan mahrum etishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan. Bunda shaxslarning fuqarolik sohasidagi huquqlari va davlatning ularga nisbatan majburiyatlari

¹⁴ Jus sanguinis // https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070721/

¹⁵ Naturlisation // https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070721/

¹⁶ La double nationalité / <https://www.service-public.fr/>

¹⁷ <https://immigrantinvest.com/ru/insider/france-citizenship-by-naturalisation/>

¹⁸ Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii // <http://www.constitution.ru/>.

¹⁹ Zakon o grajdanstve Rossiyskoy Federatsii // pravo.gov.ru

belgilangan. Asosiy qonun fuqarolik bilan bog'liq barcha huquqiy mexanizmlarning asosini tashkil qiladi. Konstitutsiyaning 6-moddasida fuqarolikka ega bo'lish va uning bekor qilinishi tartibi ko'rsatilgan.

Shuningdek, 1991-yil 28-noyabrda qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasi Fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun²⁰ fuqarolikni olish va uni yo'qotish tartibini belgilaydi. Rossiyada fuqarolikni olishning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Pravo pochvy (tug'ilish orqali fuqarolik)ga ko'ra – Rossiyada tug'ilgan shaxslar, agar ularning ota-onasi Rossiya fuqarosi bo'lsa, avtomatik tarzda fuqarolikka ega bo'lishadi.

Tug'ilish joyi prinsipiga ko'ra, agar farzand Rossiya hududida tug'ilgan bo'lsa, u Rossiya fuqarosi hisoblanadi.

2. Pravo krovi (qon orqali fuqarolik)ga ko'ra – Rossiya fuqarosi bo'lgan ota-onadan tug'ilgan bolalar avtomatik ravishda Rossiya fuqaroligini oladilar, hatto agar ular chet elda tug'lsa ham. Bu mexanizm, oilaviy uzviylikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

3. Naturalizatsiyaga ko'ra – fuqarolikka qabul qilish jarayoni davlat tomonidan belgilangan talablarga asoslanadi. Fuqarolikni olish uchun shaxs Rossiyada kamida 5 yil qonuniy yashashi, rus tilini bilishi, Rossiya qonunlariga rioya qilishi va jamiyatga qonuniy tirikchilik manbalariga ega bo'lgan bo'lishi belgilangan.

4. Vosstanovleniye grajdanstva (fuqarolikni tiklash) ko'ra – oldin Rossiya fuqarosi bo'lgan shaxslar o'z fuqaroligini tiklash uchun murojaat qilishlari mumkin. Bu jarayonda shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, fuqarolikka oid moslashuv talablari muhimdir.

5. Drugiye osobye sluchai (boshqa maxsus holatlar) ko'ra – ushbu mexanizmga oliy darajada ta'lim olayotgan yoshlar, Rossiyada iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar va ijtimoiy yordam olayotgan shaxslar ham kirishi mumkin.

Ma'lumot uchun, Rossiya Federatsiyasi IIVning rasmiy ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning birinchi yarmida 7 858 260 nafar shaxslarga Rossiya fuqaroligini tasdiqlovchi pasport berilgan²¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Rossiyada fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmi kompleks va inklyuziv bo'lib, u fuqarolikka ega bo'lishni osonlashtiradi va insonlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun muvofiqlashtirilgan mexanizmlarni ta'minlaydi. Bu mexanizmlar, jumladan, avtomatik fuqarolik berish, kerakli talablar, fuqarolikni tiklash imkoniyatlari va maxsus holatlarni qamrab oladi, fuqarolikka kirish jarayonini samarali va mustahkamlashga yordam beradi.

Shu o'rinda yana bir rivojlangan davlatlardan biri Turkiya Respublikasida fuqarolikni rasmiylashtirish tartibi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

❖ **Turkiya Respublikasida** fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmini tartibga soluvchi normalar asosan Turkiya Respublikasining "Fuqarolik kodeksi"²² va maxsus qonunlar hamda reglamentlarga asoslanadi. Fuqarolikni olish jarayonidagi asosiy prinsiplar va talablar quyidagilardan iborat:

²⁰ Закон о гражданстве Российскй Федератсии // pravo.gov.ru

²¹ <https://www.kommersant.ru/doc/6137897>

²² Turkiya Respublikasining Fuqarolik kodeksi //Legislation.gov.tr](<https://www.mevzuat.gov.tr/>)

1. **Toprak hakki** (*tug'ilish joyi orqali fuqarolik*) – Turkiyada tug'ilgan farzandlar, agar ularning ota-onasi Turkiya fuqaroligiga ega bo'lsa, avtomatik ravishda Turkiya fuqaroligini oladilar. Turkiya fuqaroligiga ega bo'lish uchun shaxsning ota-onasining fuqaroligi muhim ahamiyatga ega;

2. **Kan hakki** (*qon qoidasi orqali fuqarolik*) – Turkiya fuqarosi bo'lgan ota-onadan tug'ilgan farzandlar, hatto agar ular chet elda tug'lsa ham, avtomatik ravishda Turkiya fuqaroligini oladilar. Bu mexanizm oilaviy uzviylikni saqlash maqsadida amalga oshiriladi;

3. **Tabiiileştirme** (*naturalizatsiya*) – fuqarolikni olish uchun shaxs Turkiyada kamida 5 yil davomida qonuniy yashashi, turkiy tilini bilishi, Turkiya jamiyatiga integratsiya qilinganligini isbotlashi kerak. Shuningdek, fuqarolikka qabul qilish jarayonida shaxsning Turkiyaning tarixiy va madaniy qadriyatlarini bilishi talab qilinadi.

4. **Vatandaşlığın yeniden kazanılması** (*fuqarolikni tiklash*) – oldin Turkiya fuqarosi bo'lgan shaxslar, agar ular fuqaroligini yo'qotgan bo'lsa, o'z fuqaroligini tiklash uchun murojaat qilishlari mumkin. Bu jarayonda shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va fuqarolikka oid moslashuv talablari ahamiyatlidir.

5. **Diğer özel durumlara (boshqa maxsus holatlar)** ko'ra – Turkiya ta'lim olayotgan xorijiy studentlar, iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar va muayyan ijtimoiy statusga ega bo'lgan shaxslarga maxsus fuqarolik olish mexanizmlarini taqdim etadi.

Turkiya Respublikasida fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmi, ko'plab prinsiplar va mexanizmlar orqali mukammal tartibga solinadi. Bu mexanizmlar nafaqat davlat siyosatini, balki inson huquqlarini ta'minlashga ham qaratilgan, bu esa davlatning ijtimoiy barqarorligini va fuqarolar orasidagi uzviylikni mustahkamlaydi.

Ma'lumot o'rnida, “Emlak Kulisi” axborot agentligining 2023-yil 4-maydagi ma'lumotiga²³ ko'ra, Turkiyada rasmiy yashash ruxsatiga ega chet el fuqarolarining soni 1 million 307 ming 847 kishini tashkil etdi.

Dunyoda o'zining tinchlik va xavfsizligi bilan yetakchi o'rinlarda turadigan Singapurda fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmini tartibga soluvchi normalar asosan **Singapur** Fuqarolik kodeksi (Singapore Citizenship Act)²⁴ va Tashqi ishlar vazirligi (Ministry of Home Affairs)ning reglamentlari va ko'rsatmalariga asoslanadi. Singapurda fuqarolikni rasmiylashtirish mexanizmi asosan quyidagi turlardan iborat:

1. **公民权通过出生** (*tug'ilish orqali fuqarolik*) ko'ra – Singapurda tug'ilgan farzandlar, agar ularning ota-onalari fuqarolar bo'lsa, avtomatik ravishda Singapur fuqaroligini oladilar.

Agar ota-onadan faqat biri Singapur fuqarosi bo'lsa, farzand fuqarolikka murojaat qilish huquqiga ega;

²³ <https://eliturk.ru/vnzh-v-turcii-skolko-inostrancev-poluchilo-k-2024-godu/#:~:text=%D0%A1-%D0%B5%D0%B3%D0%BE%D0%B4%D0%BD%D1%8F%20%D0%A2%D1%83%D1%80%D1%86%D0%B8%D1%8F%20%E2%80%94%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B0%2C%20%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D0%BC%D0%B0%D1%8E%D1%89%D0%B0%D1%8F%20%D0%BD%D0%B0%D0%B8%D0%B1%D0%BE%D0%BB%D1%8C%D1%88%D0%B5%D0%B5,%D0%BC%D0%BB%D0%BD%20307%20%D1%82%D1%8B%D1%81%20847%20%D1%87%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B5%D0%BA.>

²⁴ Singapore Citizenship Act // <https://www.mha.gov.sg/>

2. 归化 (*naturalizatsiya*) ko‘ra – Singapur fuqarosiga aylanish jarayoni orqali, chet el fuqarolari muayyan shartlarni bajarganda fuqarolikka ega bo‘lishlari mumkin. Naturalizatsiya uchun asosiy talablar:

- Singapurda kamida 2 yil davomida yashash;
- Singapurning rasmiy tillarini bilish;
- Singapur jamiyatiga integratsiya qilish.

3. 恢复公民权 (*fuqarolikni tiklash*) ko‘ra – oldin Singapur fuqarosi bo‘lgan shaxslar, agar ular fuqaroligini yo‘qotgan bo‘lsa, fuqarolikni tiklash uchun murojaat qilishlari mumkin;

4. 获得公民权的特别机制 (*fuqarolikni olishda maxsus mexanizmlari*) ko‘ra – Singapurda oliy ta‘lim olayotgan xorijiy talabalar, yoki iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun maxsus fuqarolik olish mexanizmlari mavjud. Mazkur jarayonlar Singapur davlatining fuqarolik va migratsiya bo‘yicha vazirligi tomonidan rasmiy tartibga solinadi.

So‘nggi yillarda juda ko‘p iqtisodiy imkoniyatlari keng bo‘lgan tadbirkorlar ikkinchi fuqarolikni olish uchun qator davlatlarga iqtisodiy sarmoya kiritish orqali ikkinchi fuqarolikka ega bo‘lmoqdalar. Xususan, bugungi kunda *investorlar uchun fuqarolik berish davlat dasturlari Antigua va Barbuda, Grenada, Dominika, Sent-Lyusiya, Sent-Kits va Nevis, Turkiya, Misr, Shimoliy Makedoniya* hamda *Iordaniya* kabi davlatlar amal qilmoqda. Mazkur dasturga ko‘ra tadbirkor shaxs mazkur davlatlarning iqtisodiy rivoji uchun kamida 100 000 AQSH dollari sarmoya kiritisa unga fuqarolik pasportlarini dastur asosida 6 oyda, Vanuatu kabi davlatda esa fuqarolik pasportini 1 oyda olish mumkin²⁵.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni tayyorlashda, rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. AQSH, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Singapur kabi davlatlardagi fuqarolikni rasmiylashtirishning zamonaviy mexanizmini ishlab chiqish orqali fuqarolarga qulaylik yaratish, mazkur jarayonlarni shaffofligini hamda huquqiy himoyani ta‘minlashga yo‘naltirilgan quyidagi takliflar ilgari surilmoqda. Xususan:

birinchidan, fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish. Mazkur taklifni ilmiy jihatdan asoslashda bir qator nazariy konsepsiyalar, xalqaro tajribalar va texnologiyalar rivoji muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yo‘nalishda asosan raqamlashtirishning ahamiyati va uning huquqiy jarayonlarga ta‘siri keng tadqiq etilgan. Jumladan:

a) raqamlashtirishning nazariy asoslari (*raqamli texnologiyalar, jumladan, elektron hukumat konsepsiyasi (e-Government), davlat xizmatlarini raqamli platformalarga o‘tkazish orqali fuqarolar va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxshilashga qaratilgan. Bu konsepsiya Jahon banki va BMT tomonidan keng yoritilgan va uning natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumat fuqarolarning davlat bilan o‘zaro munosabatlarida shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni oshiradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali ma‘muriy jarayonlar oddiylashadi va byurokratik jarayonlardagi kamchiliklar qisqartiriladi*);

²⁵ <https://imin-caribbean.com/ru/blog/top-citizenship-by-investment-countries/>

b) rivojlangan davlatlar tajribasi (fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida Singapur va Germaniya tajribasi ahamiyatlidir. Singapur davlat xizmatlarining aksariyatini raqamli platformaga o'tkazgan. Fuqarolikni olish va turli hujjatlarni qabul qilish jarayonlari elektron portallar orqali amalga oshiriladi, bu esa fuqarolarning davlat idoralariga borish zaruratini kamaytiradi. Shu bilan birga, fuqarolar murojaatlarini onlaynda to'ldirish va natijalarni elektron shaklda olishlari mumkin. Germaniyadagi raqamli fuqarolik portali fuqarolarga davlat xizmatlariga elektron tarzda murojaat qilish imkonini beradi, bu esa fuqarolar va davlat idoralari o'rtasidagi byurokratik jarayonlarni qisqartirib, tezkor va shaffof xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi);

v) fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini elektronlashtirishning afzalliklari (fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini elektron platformaga o'tkazish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi: Tezkorlik: Elektron platforma orqali hujjatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlari an'anaviy usulga nisbatan tez amalga oshiriladi, chunki barcha bosqichlar avtomatlashtiriladi. Shaffoflik: Barcha jarayonlarni elektron platformalar orqali amalga oshirish orqali korrupsiyaviy xavflar kamayib, murojaatlarning holatini real vaqtda kuzatish imkoni yaratiladi. Qulaylik: Fuqarolarga o'z uylarida turibq murojaat qilish imkoni yaratiladi, bu esa davlat idoralariga borish zaruriyatini yo'q qiladi va vaqtni tejaydi. Ma'lumotlarning xavfsizligi: Raqamli tizimlar xavfsizlik choralari orqali ma'lumotlarning axfiyligini ta'minlaydi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning himoyalangan bo'lishini kafolatlaydi);

g) O'zbekiston uchun raqamlashtirishning ahamiyati (O'zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni allaqachon boshlangan bo'lib, elektron hukumat tizimi orqali turli davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Shuningdek, Prezidentning farmonlari va qonunlarda raqamlashtirishning ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Shu bois, fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini elektron platformaga o'tkazish mamlakatning raqamli transformatsiya yo'nalishidagi yana bir muhim qadam bo'lishi mumkin).

d) huquqiy jihatdan asoslash (fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini raqamlashtirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga to'g'ri kelishi va zamonaviy xalqaro normalar bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Bunda, raqamlashtirish bo'yicha yangi qonunlar yoki amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi lozim).

ikkinchidan, **investorlik asosida fuqarolikni berish dasturi.** Mazkur dasturlar yangi O'zbekiston uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan birga, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investorlar esa qo'shimcha huquq va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ushbu mexanizmni O'zbekistonda joriy qilish mumkinligi haqida ilmiy jihatdan asoslash quyidagi omillarga tayanadi:

a) nazariy asoslar (fuqarolikni investorlik asosida olish imkoniyati, jahon iqtisodiyotida "investitsiyaviy migratsiya" nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu nazariyaga ko'ra mamlakatlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish orqali o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda sarmoyadorlar yoki tadbirkorlar davlat iqtisodiyotiga kapital kiritib, mamlakat fuqaroligi yoki doimiy yashash huquqini qo'lga kiritadilar;

b) rivojlangan davlatlar tajribasi (investorlik yoki tadbirkorlik asosida fuqarolik berish bo'yicha bir qator davlatlarda muvaffaqiyatli dasturlar mavjud: - **Antigua** va **Barbuda**: Bu

mamlakatda sarmoyadorlar mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri 100,000 AQSH dollaridan ko'proq sarmoya kiritgan holda fuqarolik olishlari mumkin. Bu mexanizm orqali mamlakat iqtisodiyotiga katta sarmoya kiritilgan, shu bilan birga, sarmoyadorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilgan; - **Dominika**: Investorlik asosida fuqarolik olish dasturi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manbaga aylangan. Investorlar 100,000 AQSH dollari yoki undan ortiq kapital kiritib, Dominika fuqaroligini qo'lga kiritishlari mumkin; - **Sent-Lyusiya**: Fuqarolikni investitsiya orqali olish dasturi asosida sarmoyadorlar mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan holda Sent-Lyusiya fuqarosi bo'lishlari mumkin. Bu dastur mamlakatga katta sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi; - **Turkiya**: 250.000 AQSH dollari qiymatida ko'chmas mulk sotib olgan yoki muayyan miqdorda kapital kiritgan sarmoyadorlar Turkiya fuqaroligini olishlari mumkin. Bu mamlakat iqtisodiyotiga turizm va ko'chmas mulk bozorlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi);

v) iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri (investorlik asosida fuqarolik berish dasturlari, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha sarmoyalarni jalb qilishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasining tadqiqotlariga ko'ra, xorijiy sarmoyalar davlat iqtisodiy o'sishida muhim omil bo'lib, ishlab chiqarish sektorlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ana shunday dasturlarni joriy qilish mamlakat iqtisodiyotiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- iqtisodiy o'sishga turtki (investorlar orqali mamlakatga kiritilgan kapital mahalliy sanoatlar, xizmat ko'rsatish sohalari va infratuzilmalarni rivojlantirishda qo'llanishi mumkin;

- sarmoya kiritish muhitini yaxshilash (investorlik asosida fuqarolik berish dasturlari mamlakatdagi biznes muhitini yaxshilash va xalqaro sarmoyadorlar uchun mamlakatni yanada jozibador qilish imkonini beradi);

- biznes bilan bog'liq qonunchilikni rivojlantirish (investorlarni jalb qilish uchun fuqarolik berish bo'yicha qonunlar va me'yoriy hujjatlarning takomillashtirilishi huquqiy muhitning shaffof va samarali bo'lishiga yordam beradi);

g) huquqiy jihatdan asoslash (O'zbekiston Respublikasida fuqarolik olish qoidalari "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Investorlik asosida fuqarolik berish to'g'risidagi o'zgartish va qo'shimchalar amaldagi qonunlarga kiritilishi zarur. Bu borada qonunchilikka sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha huquqiy normalar kiritib, fuqarolikni investitsiya yoki tadbirkorlik orqali olish imkoniyatlari rivojlantirilishi mumkin. Huquqiy normalarda sarmoyaning minimal miqdori, sarmoyadorlik shartlari va fuqarolikni olish jarayonlari aniqlashtirilishi lozim).

uchinchidan, **fuqarolikni olishda qonuniy huquqiy kafolatlarni kuchaytirish**. Bunda, fuqarolikni olish jarayonida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish mamlakatning inson huquqlari muhofazasi, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning aniq va shaffof tartibga solinishi, hamda davlat va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy kafolatlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. AQSH, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar fuqarolikka qabul qilish jarayonida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va jarayonni shaffoflashtirish bo'yicha ko'plab ijobiy tajribalarga ega. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolikka qabul qilish jarayonida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan:

a) nazariy asoslar (fuqarolik davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlarning eng muhim shaklidir. Bu munosabatlar orqali shaxs davlat himoyasi va huquqiy kafolatlar bilan ta'minlanadi, shuningdek, o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi. Yuridik kafolatlar bu jarayonda har bir shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida hech qanday sun'iy to'siqlarsiz va huquqlarni buzmasdan fuqarolikka qabul qilishni ta'minlaydi);

b) AQSH va Germaniya tajribasi (AQSH va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda fuqarolikka qabul qilish jarayoni ko'p bosqichli va huquqiy himoya bilan ta'minlangan. Bu jarayonlar nafaqat huquqiy normalar, balki inson huquqlariga bo'lgan hurmat va adolatlilik tamoyillariga asoslangan:

- AQSH: Fuqarolikka qabul qilish jarayonida himoya va kafolatlar katta e'tibor qaratiladi. AQSH Konstitutsiyasi va Amaldagi qonunlar orqali har bir shaxsga qonuniy huquqiy himoya taqdim etiladi. Huquqiy kafolatlar, fuqarolikka qabul qilish jarayonida shaxsning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi;

- Germaniya: Fuqarolikka qabul qilishda huquqiy kafolatlar fuqarolik qonunchiligiga qat'iy asoslanadi. Fuqarolikni olish jarayonida shaxslarga adolatli va shaffof jarayonlarni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada fuqarolikni olish jarayoni qonunlarga asoslangan bo'lib, fuqarolarning huquqlari aniq va qulay usulda himoya qilinadi);

v) fuqarolikka qabul qilish jarayonida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish zarurati (O'zbekiston Respublikasida fuqarolikka qabul qilish jarayonida qonuniy huquqiy kafolatlarni kuchaytirishning bir nechta muhim jihatlari bor. Bularga: - huquqiy aniqlik va shaffoflik: Fuqarolikka qabul qilish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar uchun huquq va majburiyatlarni aniq belgilash orqali ularning huquqiy himoyasi ta'minlanadi. Jarayondagi qadamlar, talablar va shartlar ochiq va tushunarli bo'lishi kerak; - fuqarolar huquqlarining himoyasi: Fuqarolikni olishga ariza topshirgan shaxslarning huquqlari jarayon davomida to'liq himoya qilinishi va ularga murojaat qilish huquqi berilgan bo'lishi kerak. Ariza ko'rib chiqish jarayonidagi qonunbuzarliklarni oldini olish uchun qonunchilik bazasini yanada kuchaytirish zarur; - qonunbuzarliklarning oldini olish: Fuqarolikka qabul qilish jarayonida korrupsiya yoki byurokratik to'siqlar yuzaga kelmasligi uchun qonunchilikdagi aniqlik va jarayonlarning kerakli darajada tartibga solinishi muhimdir);

g) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish - qonuniy qadamlar va qoidalarini mustahkamlash (fuqarolikka qabul qilish jarayonida shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniqlashtirish, talab va shartlarning qonuniy asosini aniqlashtirish zarur.

Bu orqali jarayon shaffof va qonuniy bo'lishi ta'minlanadi);

-jarayonlar bosqichlari va muddatlarini belgilash (fuqarolikka qabul qilishda barcha bosqichlar va jarayonlar uchun aniq muddatlar va qadamlar belgilanishi zarur. Bu orqali shaxslar o'z huquqlaridan samarali foydalanishi va hech qanday sun'iy to'siqlarga duch kelmasligi ta'minlanadi);

-huquqiy murojaat qilish imkoniyati (fuqarolikka qabul qilish jarayonida ariza topshirgan shaxslarga jarayonning har bir bosqichida huquqiy murojaat qilish imkoniyatini berish kerak. Bu jarayonda yuzaga kelgan muammolar yoki adolatsizliklarga qarshi murojaat qilish huquqining kafolatlanganligini ta'minlaydi).

d) xalqaro huquq va milliy standartlar (fuqarolik masalasidagi huquqiy kafolatlar xalqaro huquqning muhim qismi hisoblanadi. Xalqaro konvensiyalar va deklaratsiyalar davlatlarni fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga majbur qiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Yevropa inson huquqlari konvensiyasi davlatlarga fuqarolik berish jarayonida inson huquqlarini himoya qilish talablarini belgilaydi. O'zbekistondagi fuqarolikka qabul qilish jarayonini xalqaro standartlarga muvofiq qilish, mamlakatning xalqaro majburiyatlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi).

to'rtinchidan, muddatlar va jarayonlarni standartlashtirish. Rivojlangan Germaniya va Fransiya tajribasida fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni uchun aniq muddatlar belgilangan. O'zbekistonda ham ushbu jarayonni aniq muddatlarga bog'lash va byurokratik kechikishlarning oldini olish taklif etiladi;

beshinchidan, fuqarolikdan chiqish mexanizmini qayta ko'rib chiqish. Bugungi kunda Rossiya va Turkiya kabi davlatlardagi fuqarolikdan chiqish jarayoni shaffof va aniq tartiblarga asoslangan. O'zbekistonda fuqarolikdan chiqish jarayonini soddalashtirish va huquqiy tushuntirishlarni kuchaytirish kerak.

oltinchidan, fuqarolikka qabul qilishning gumanitar asoslarini kengaytirish. So'nggi yillarda Misr, Iordaniya, va Shimoliy Makedoniya kabi davlatlarda ayrim gumanitar holatlarda fuqarolik berish jarayonlari osonlashtirilgan. Masalan, O'zbekistonda ta'lim, ilm-fan, madaniyat sohasida katta hissa qo'shgan xorijiy mutaxassislarga fuqarolikni yengillashtirilgan tartibda berish mumkin.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning ilmiy tahlillaridan xulosa qilish mumkinki, mazkur takliflar kelajakda yangi O'zbekiston qonunchiligiga zamonaviy o'zgarishlarni kiritib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qilish hamda mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Xorijiy amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, fuqarolikni rasmiylashtirishning barqarorligi "qat'iy talablar"dan ko'ra ko'proq protsedural adolat va huquqiy aniqlik bilan belgilanadi. Eng muvaffaqiyatli modellarda: hujjatlar va muddatlar standartlashtiriladi, qarorlar majburiy tarzda asoslantiriladi, administrativ diskreksiya chegaralanadi, shikoyat qilish mexanizmlari real ishlaydi, ma'lumotlar himoyasi va xavfsizlik tekshiruvlari esa mutanosiblik tamoyili asosida quriladi. Raqamlashtirish va idoralararo integratsiya jarayonni tezlashtiradi va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi. Shundan kelib chiqib, milliy tizimni takomillashtirishda xalqaro tajribadan "shaffof tartib-taomillar", "due process", "nondiskriminatsiya", "e-government" va samarali apellyatsiya kafolatlari bo'yicha institutsional standartlarni moslashtirish ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.